

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI UCHUN MANTIQUIY MASALALAR
TUZISH VA ULARNI YECHISH METODIKASI****UMAROVA ZULFIZAR OTABEK QIZI**

Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va
boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich
ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun mantiqiy masalalarning ahamiyati, ularni tuzish va yechish metodikasi ko'rib chiqiladi. Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalar qo'llash orqali o'quvchilarning muataqil fikrlash, analiz qilish, mantiqiy bog'liqliklarni aniqlash kabi ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Maqolada mantiqiy masalalar turlariga to'xtalib, ularni tuzishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlar tahlil qilinadi. Shuningdek mantiqiy masalalar yechishning samarali usullari, innovatsion pedagogik yondashuvlar va tajribaviy natijalarga asoslangan tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: mantiqiy tafakkur, boshlang'ich sinf, mantiqiy masalalar, didaktik o'yinlar, innovatsion metodlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение логических задач для развития логического мышления учащихся младших классов, методика их постановки и решения. Применяя логические задачи на уроках математики в начальных классах, учащиеся могут развивать такие навыки, как независимое мышление, анализ и определение логических связей. В статье акцентируется внимание на видах логических задач и анализируются аспекты, на которые следует обратить внимание при их составлении. Также приведены эффективные методы решения логических задач, инновационные педагогические подходы и рекомендации, основанные на результатах экспериментов.



Ключевые слова: логическое мышление, начальная школа, логические задачи, дидактические игры, инновационные методы.

Abstract: This article examines the importance of logical problems for the development of logical thinking in primary school students, the methodology for their formulation and solution. By using logical problems in primary school mathematics lessons, students can develop skills such as independent thinking, analysis, and identification of logical relationships. The article discusses the types of logical problems and analyzes the aspects that should be paid attention to when formulating them. It also provides effective methods for solving logical problems, innovative pedagogical approaches, and recommendations based on experimental results.

Keywords: logical thinking, primary school, logical problems, didactic games, innovative methods.

KIRISH. Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faqat bilim olishiga emas, balki ularning mustaqil fikrlash mantiqiy tafakkur qilish qobiliyatini rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mantiqiy masalalar orqali mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mantiqiy bog‘liqliklarni aniqlash va anglash kabi qobiliyatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda mantiqiy masalalarning o‘rni beqiyos bo‘lib, ularning to‘g‘ri tuzilishi va o‘quvchilarga mos holda taklif etilishi pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. Ushbu maqolada mantiqiy masalalar yaratishning ilmiy asoslari, ularning tuzilishi va yechish usullari ko‘rib chiqiladi.

Asosiy qism. Mantiqiy masalalar bu o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga mo‘ljallangan, bevosita matematik amallarni bajarishdan ko‘ra ko‘proq tahliliy va mustaqil fikrlash talab etiladigan masalalardir. Ular quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Matematik mantiqiy masalalar – arifmetik amallar bilan bog‘liq, lekin izchil tahlilni talab qiladigan masalalar.



2. Topologik masalalar – geometrik shakllar, yo'nalishlar va joylashuvlar bilan bog'liq masalalar.
3. Qoidalar asosida masalalar- muayyan qonuniyat va qoidalarni topishga asoslangan masalalar.
4. Qiziqarli mantiqiy jumboqlar va rebuslar- o'yin shaklida berilib, o'quvchilarning e'tibor va tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi masalalar.

Mantiqiy masalalar tuzish metodikasi. Mantiqiy masalalar tuzishda quyidagi tamoyillarga e'tibor qaratish lozim:

Yosh xususiyatlariga moslik- masalalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga mos bo'lishi kerak.

Qiziqarlilik va interaktivlik- masalalar o'quvchilar qiziqishlarini oshirishga xizmat qilishi zarur.

Oddiydan murakkabga qarab shakllantirish – masalalar oddiy ko'rinishdan murakkab tahliliy masalalarga qarab rivojlanishi kerak.

O'yin elementlaridan foydalanish – didaktik o'yinlar orqali mantiqiy masalalarni qiziqarli shaklda berish.

Kontekstualizatsiya – masalalar real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lanishi orqali o'quvchilarning qiziqizishi oshiradi.

Bosqichma- bosqichlik- masalalarni yechish jarayoni tizimli bo'lib, avvalo oddiy misollardan boshlab , keyin murakkabroq masalalarga o'tkaziladi.

Mantiqiy masalalarni yechish metodikasi. Mantiqiy masalalarni samarali yechish uchun quyidagi metod va usullardan foydalanish mumkin:

1. Tahlil va taqqoslash usuli- masalalarni kichik qismlarga ajratib, mantiqiy bog'liqliklarini taqqoslash.
2. Algebraik usul – matematik ifodalar orqali masalalarni yechish.
3. Grafik usul – diagramma, sxema yoki jadval orqali masalani tushunish.
4. O'yinga asoslangan yondashuv – o'quvchilarni jalb etish uchun mantiqiy o'yinlardan foydalanish.



5. Guruh bo'lib ishlash – o'quvchilar o'rtasida fikr almashinuvi va jamoaviy yechim topish jarayonini qo'llab – quvvatlash.

Misol: Oddiy sillogistik masala.” Agar barcha A toifadagi narsalar B toifasiga mansub bo'lsa va barcha B toifadagi narsalar C toifasiga kirsalar, unda barcha A toifadagi narsalar C toifasiga tegishlimi?”. O'quvchilar mantiqiy xulosa chiqarish orqali “ha” javobga kelishlari mumkin. Ushbu masala orqali ularning qabul qilish jarayonidagi analogiya va xulosa chiqarish ko'nikmalari mustahkamlanadi.

XULOSA. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mantiqiy masalalarni tuzish va yechish metodikasi nafaqat o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga, balki ularni hayotiy muammolarga mustaqil yechim izlab topishga tayyorlashga qaratilgan. Yuqoridagi metodik tavsiyalar asosida tuzilgan masalalar o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishga, shuningdek, o'zaro hamkorlik va muloqot orqali ijodiy fikrlashni qo'llab – quvvatlashga xizmat qiladi. Mantiqiy masalalarning tuzilishi va yechish metodikasiga to'g'ri yondashish orqali bolalarning intellektual rivojlanishi va mantiqiy tafakkuri mustahkamlanadi. O'qituvchilar dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash orqali mantiqiy masalalarning samaradorligini oshirishlari lozim. Shu tarzda metodologiya nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning shaxsiy va intellektual o'sishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq – Toshkent: Fan, 1992.
2. Hasanov.U. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020.
3. Vygotsky.L.S. Thought and Language-Cambiridge, MA:MIT Press, 1986.
4. Jalolov.J. Pedagogik innovatsiyalar va ta'lim texnologiyalari- Toshkent: Noshir, 2016.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. Toshkent: Ma'naviyat, 2023.